

JINOYATLARNI UMIMIY JIHATLARDAN KELIB CHIQUIB TASNIFLASH

Berdiyev Zoxid Zokirovich

Manaviy-marifiy ishlar va kadrlar bilan taminlash departamenti,
murojaatlarni korib chiqish bolimi katta inspektori mayor**ANNATATSIYA**

Mazkur maqola, Jinoyatlarni umumiy jihatlardan kelib chiqib tasniflash haqida bo'lib, Jinoyatlarni obyektiga ko'ra tasniflash masalasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi jinoyatlarni maxsus (turdosh) obyektiga qarab guruhlariga ajratish va maxsus obyektning ahamiyatiga qarab joylash-tirilishini belgilashi haqida.

Kalit so'zlar: Aybning shakllari, sanksiya, obyektiga ko'ra tasniflash, genotsid, xavflilik darajasi.

Jinoyatlarni tasniflash deganda, jinoyatlarni u yoki bu belgilariga ko'ra turkumlarga ajratish tushuniladi. Jinoyat huquqida jinoyatlarni tasniflashda quyidagi ikki mezon nazarda tutilgan bo'lib, jinoyat qonunida jinoyatlar aynan ana shu mezonlar asosida tasniflangan:

1. Jinoyatlarning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab tasniflash.

2. Jinoyatlarning obyektiga (tajovo'z qaratilgan obyekt)ga ko'ra tasniflash. Jinoyatlarni tasniflash va guruhlariga bo'lishning asosiy mezoni jinoyatlarning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi hisoblanadi. Jinoyatlarni tasniflashning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi mezoni ham ikki belgi:

a) aybning shakllari (qasd yoki ehtiyotsizlik);

b) jinoyat kodeksida nazarda tutilgan sanksiyalar (ularning og'irlik darajasi)ga bog'liq bo'ladi [13].

Sanksiyalarning og'irlik darajasi jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyatiga bevosita bog'liqdir.

Jinoyat kodeksi 15-moddasidagi jinoyatlarning tasnifi jinoyatning moddiy va formal belgilarini birlashtiradi. Bu esa jinoyatning ijtimoiy tarkibi va u yoki bu guruhga kirishini aniq belgilaydi. Sanksiya'ning xususiyati, jazo turlari va ularning og'irlik darajasi jinoyatning ijtimoiy tarkibini tashkil etadi, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurash yunalishlari ham jinoyat ijtimoiy tarkibining elementlaridan biri hisoblanadi.

Jinoyatlarning tasnifi Jinoyat kodeksi 15-moddasida berilgan bo'lib, unda Jinoyat kodeksi Umumiy va Maxsus qismi normalari tizimini e'tiborga olgan holda jinoyatlar o'zining xavflilik darajasiga ko'ra yengilidan og'iriga qarab tasniflangan.

Jinoyat kodeksi 15-moddasiga muvofiq, jinoyatlar o'z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra:

a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar;

b) uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar;

c) og'ir jinoyatlar;

d) o'ta og'ir jinoyatlarga bo'lingan.

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi. Bunday jinoyat guruhiga – onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi (Jinoyat kodeksi, 99-modda), ijtimoiy xavfli qil-mish sodir etgan shaxsni ushlab turishning

zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish (101-modda), kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish (106-modda), qiynash (110-modda), o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish (112-modda), besoqolbozlik (120-modda), ko'p xotinli bo'lish (126-modda), tarix yoki madaniyat yodgorligini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish (132-modda), ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish (136-modda), fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (144-modda) kabilarni kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi "Jinoyat, jinoyat protsessual hamda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks-larga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni bilan Jinoyat kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlardan oldin esa, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarga qonunda ozodlikdan mahrum qilishga nisbatan yengilroq jazolar nazarda tutilgan jinoyatlar kiritilgan edi. Uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Bunday jinoyatlar guruhiga – kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish (Jinoyat kodeksi, 98-modda), qasddan badan-ga o'rtacha og'ir shikast yetkazish (105-modda, 2-qismi), kasb yuzasi-dan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik (116-modda, 4-qismi), ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur etish (121-modda, 2-qismi), bolani almashtirib qo'yish (124-modda), o'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz buzuq harakatlar qilish (129-modda, 2-qismi), qabrni tahqirlash (134-modda), saylov huquqining yoki ishonchli vakillar vakolatlarining amalga oshirilishiga to'sqinlik qilish (147-modda), talonchilik (166-moddaning 1,2-qismlari) kabi jinoyatlar kiradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan jinoyatlar O'zbekiston Respublikasi 2001-yil 29-avgustdagi qonun bilan Jinoyat kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlardan oldin esa, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik orqasida sodir etilib, qonunda ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kirgan.

Og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq, lekin o'n yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish ja'zosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi. Agar qonunda ozodlikdan mahrum qilishning eng oz qismi uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun tayinlansa, eng ko'p qismi og'ir jinoyatlar guruhiga kiruvchi jinoyatlar uchun nazarda tutilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 118-moddasi (nomusga tegish) sanksiyasida ozodlikdan mahrum qilishning muddati uch yildan yetti yilgacha berilgan. Demak, eng yuqori qismi yetti yil bo'lganligi uchun bu jinoyat og'ir jinoyatlar guruhiga kiradi.

Og'ir jinoyatlar guruhiga – qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (104-moddaning 2-qismi), nomusga tegish (118-moddaning 1,2-qismlari), voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish (127-moddaning 3-qismi), odamlardan foydalanish uchun ularni yollash (135-moddaning 2-qismi), odam o'g'irlash (137-mod-daning 2-qismi), urushni targ'ib qilish (150-modda), yollanish (154-modda), milliy, irqiy yoki diniy adovat qo'zg'atish (156-moddaning 2-qismi), davlat sirini oshkor qilish (162-moddaning 2-qismi), bosqin-chilik (164-moddaning 1,2-qismlari) kabi jinoyatlarni kiritish mumkin.

O'ta og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki o'lim ja'zosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi. Bunday jinoyatlar guruhiga - qasddan odam o'ldirish (JK, 97-modda), jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish (119-moddaning 3,4-qismlari), agressiya (151-mod-da), urushning qonun va udumlarini buzish (152-modda), genotsid (153-modda), terrorizm (155-modda 2,3-qismlar), davlatga xoinlik qilish (157-modda), josuslik (160-modda), qo'poruvchilik (161-modda) kabi jinoyatlar kiradi.

Jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyatiga ko'ra tasniflash nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. Masalan, shaxs tomonidan u yoki bu toifadagi jinoyatlarning sodir etilishi "ozodlikdan mahrum qilish" (JK, 50-modda), "shartli hukm qilish" (72-modda), "jinoiy javobgarlikdan ozod qilish" (64-68-mod-dalar), "jazoni yengilrog'i bilan almashtirish" (74-modda) kabi holat-larning qo'llanishi singari jinoyat huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Jinoyatlarni obyektiga ko'ra tasniflash masalasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi jinoyatlarni maxsus (turdosh) obyektiga qarab guruhlarga ajratish va maxsus obyektning ahamiyatiga qarab joylashtirilishini belgilaydi. Jinoyat kodeksi Maxsus qismi jinoyatning maxsus (turdosh) obyektiga ko'ra bo'lim va boblarga ajratilgan. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining birinchi bo'limida "shaxsga qarshi jinoyatlar", ikkinchi bo'limida "tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar", uchinchi bo'limida "iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar", to'rtinchi bo'limida "ekologiya sohasidagi jinoyatlar" va shu kabi jinoyatlar bo'limlarga ajratib joylashtirilgan. Bunda bevosita obyekt bir-biriga o'xshash jinoyatlar bitta bo'limga kiritilib, ana shu bo'lim yoki bobdagi jinoyatlarning barchasi uchun umumiy bo'lgan obyekt maxsus (turdosh) obyekt deb yuritiladi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Уголовное право. Общая часть. Учебник / Под. ред. Н.И. Ветрова, Ю.И. Ляпунова - М.: Новый Юрист, КноРус, 1997. – С. 136.
2. Ветров Н.И. Уголовное право. Общая часть: Учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ – ДАНА, Закон и право, 1999. – С. 62
3. Курс советского уголовного права. - Т.1. Часть Общая. – Л.: 1968. – С. 170. Read 2326 times
Published in Referatlar/Kurs ishi/Mustaqil ishlar More in this category: « Jinoyat tarkibi Jinoyat qonuni » back to top
4. Buxoro davlat universiteti Axborot texnologiyalar markazi © 2019.